

HUDUDNING URBANISTIK SALOHIYATINI ANIQLASH MASALALARI**Tashtayeva Saida Kaxarovna**

g.f.n. dotsent

[0000-0002-6960-5513]

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

**Xasanboy Qosimov Sirojiddinovich**

doktorant

[0009-0003-9984-0746]

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston hududlarining urbanistik salohiyati aniqlanib, uning mavjud metodika, ya‘ni shahar aholisi ulushiga mosligi tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan hududlarning urbanistik salohiyatini aniqlash yo‘nalishlari va uning darajasini belgilash uchun baholash tizimi ishlab chiqilib, Respublika hududlarining urbanistik salohiyatiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar: Hududiy urbanistik salohiyat, shaharlar, shaharchalar, shahar funksiyalari, urbanizatsiya.

Вопросы определения урбанистического потенциала территории

Аннотация. В данной статье определен урбанистический потенциал территорий Узбекистана и проанализировано его соответствие существующей методике, то есть доле городского населения. Авторами разработана система оценки направлений определения урбанистического потенциала территорий и определения его уровня, дана оценка урбанистического потенциала территорий республики.

Ключевые слова: Территориальный урбанистический потенциал, города, поселки, городские функции, урбанизация.

Issues of determining the urbanism potential of the territory

Abstract. This article identifies the urban potential of the territories of Uzbekistan and analyzes its compliance with the existing methodology, that is, the share of the urban population. The authors have developed a system for assessing the directions for determining the urban potential of territories and determining its level, and have given an assessment of the urban potential of the territories of the republic.

Key words: Territorial urban potential, cities, towns, urban functions, urbanization.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida hududlarni rivojlanishi bo‘yicha bir qancha dasturlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma‘muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2009-yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturining qabul qilinishi bilan qishloq joylarning ishlab chiqarish va infratuzilmaviy salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri qilib belgilandi. Qishloqlarda zamonaviy infratuzilma tizimini barpo etish, bu joylarga sanoatni olib kirish, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini yaxshilash, urbanizatsiyani ichkaridan rivojlantirish ko‘zda tutildi. Shuningdek, hududlarda urbanizatsiya jarayonini jadallashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan

takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va ushbu farmon ilovasida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiyani tartibda solish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si ishlab chiqildi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O‘zbekistonda urbanizatsiya va shaharlar rivojlanishining geografik jihatlarini 1960-70-yillarda I.Smironov, T.Raimov, O.Otamirzayev, A.Soliyev, A.Qayumov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.Mallaboyev, Sh.Imomov, Z.Raimjonovlarning ilmiy ishlarini keltirish o‘rinli. Mustaqillik davrida ushbu masala doirasida H.Tursunov, Z.T.Abdalova, M.Erdonov, S.K.Tashtayeva, M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov, P.Qurbonov va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar [3]. Bu ishlarda urbanizatsiya darajasi odatdagidek, shahar aholisi ulushi bilan o‘lchangan. Biroq, bu ko‘rsatkich har doim ham urbanizatsiyaning real holatini ko‘rsatmaydi.

Shu sababli, mazkur tadqiqot ishida ilk marotaba “hududning urbanistik salohiyati” tushunchasi qo‘llanildi va uni aniqlash metodikasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hududlarning urbanizatsiya darajasi odatda shahar aholisining ulushi bilan o‘lchanadi. Yetakchi shaharshunos olimlar ham, Jahon tashkilotlari ham shu ko‘rsatkichdan foydalanib kelishadi. Biroq bu birlamchi ko‘rsatkich bo‘lishiga qaramay, ayrim hollarda real urbanizatsiyani ko‘rsatmaydi va “soxta” urbanizatsiya holatini ifodalaydi. Masalan, 2009-yilda O‘zbekistonda 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomini berish ham shunga misol bo‘ladi. Bu aslida yirik qishloqlar hisobiga bo‘lgani uchun Farg‘ona vodiysida urbanizatsiya darajasi keskin ortib ketdi. Bunga aslida aholi soni ko‘pligi va zichlikning yuqoriliga sabab bo‘ldi. Bu soxta urbanizatsiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, hududning real urbanistik salohiyatini ko‘rsatmaydi [4].

Shuningdek, so‘nggi yillarda urbanizatsiya

1-jadval. Aholi soniga ko‘ra shaharning turi va ularning ballanishi. (Jadval: Muallif tomonidan statistik ma’lumotlar asosida tayyorlangan)

Shaharning turi	Aholisi soni	Ball
Millioner shaharlar	1 mln dan ortiq	10
Eng yirik shaharlar	500 mingdan 1 mln gacha	9
Yirik shaharlar	250 mingdan 500 minggacha	8
Katta shaharlar	100 mingdan 250 minggacha	7
O‘rta shaharlar	50 mingdan 100 minggacha	6
Yarim o‘rta shaharlar	20 mingdan 50 minggacha	5
Kichik shaharlar	20 mingdan kam	4
Katta shaharchalar	20 mingdan ortiq	3
O‘rta shaharchalar	10 mingdan 20 minggacha	2
Kichik shaharchalar	10 mingdan kam	1

S = hududdagi shaharlar soni

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Taklif etilayotgan metod bilan respublikamizning barcha hududlarining hududiy urbanistik salohiyati baholanib chiqishi uchun hududlardagi shahar va shaharchalarni qaysi ballik tizimda qancha shahar yoki shaharchalar sonini aniqlash kerak (2-jadval).

Hududiy urbanistik salohiyatni 10 ballik tizim orqali Respublikamiz hududlarini aniqlash uchun mazkur formula bilan Andijon viloyatining hududiy urbanistik salohiyati misolida aniqlaymiz. Viloyatda 1 ta yirik shahar, 2 ta o‘rta shahar, 7 ta o‘rta shahar, va 1 ta kichik shahar hamda 79 ta shaharcha, shundan 33 tasining aholisi soni

murakkab jarayonga aylanib bormoqda, agar ilgari faqat shaharga ko‘chib kelganlar soni hisoblansa, hozir u murakkab jarayon bo‘lib shahar hayoti bilan bog‘liq barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois, hududlarning umumiy rivojlanishini ko‘rsatish maqsadida urbanizatsiya darajasini aniqlashda asosiy ko‘rsatkich shahar aholisi ulushi bo‘lib qolgan taqdirda, maxsus urbanistik tadqiqotlar uchun “Hududning urbanistik salohiyati” tushunchasi kiritildi va uni aniqlash metodikasi ishlab chiqildi. Eng avvalo bu metodika uchun bizda mavjud shaharlarni aholisining soniga qarab 1 dan 10 ballgacha quyidagicha ajratib olinadi (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining hududiy urbanistik salohiyatni aniqlash uchun mazkur formuladan foydalanib hisoblanadi:

$$U = (A + B) / S$$

U = hududiy urbanistik salohiyat
A = tegishli raqamga ega shaharlar soni
B = aholi soniga ko‘ra shahar bali

7 mingdan ko‘p bo‘lsa 46 tasining aholi soni 7 mindan kam shaharchalar mavjud. Uning hududiy urbanistik salohiyatini esa quyidagi amallar bilan aniqlanadi:

$$U = ((1 \cdot 8) + (2 \cdot 6) + (7 \cdot 5) + (1 \cdot 4) + (8 \cdot 3) + (25 \cdot 2) + (46 \cdot 1)) / (1 + 2 + 7 + 1 + 8 + 25 + 46) = 179 / 90 = 2.0$$

Demak viloyatning hududiy urbanistik salohiyati 2.0 ballga teng.

Respublikamiz hududlarini hududiy urbanistik salohiyati yuqoridagi formula asosida aniqlanganda quyidagi ko‘rsatkishlarni qayd etadi (3-jadval).

Olib borilgan tadqiqotlarni ahamiyatini yanada ochib berish uchun hududlarni urbanistik salohiyatini quyidagicha baholash mumkin.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi shaharlarini hududlar kesimida shahar tiplari. (Jadval: Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tayyorlangan)

T/r	Maʼmuriy hududiy birliklar nomi	Shaharlar soni							Shaharchalar soni				
		Millioner shahar	Eng yirik shsharlar	Yirik shaharlar	Katta shaharlar	Oʻrta shaharlar	Yarim oʻrta shaharlar	Kichik shaharlar	Jami	Katta shaharchlar	Oʻrta shaharchalar	Kichik shaharchalar	Jami
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi			1		4	3	4	12	1	5	20	26
2	Andijon viloyati			1		2	7	1	11	8	25	46	79
3	Buxoro viloyati			1		2	2	6	11		1	67	68
4	Jizzax viloyati				1		5		6	2	11	29	42
5	Qashqadaryo viloyati			1	1	2	6	2	12	1	14	102	117
6	Navoiy viloyati				1	1	2	3	7	1	1	44	46
7	Namangan viloyati		1			3	4		8	6	12	97	115
8	Samarqand viloyati		1			2	4	4	11	5	10	73	88
9	Surxondaryo viloyati				1	1	4	2	8	1	6	105	112
10	Sirdaryo viloyati				1		2	2	5	1	5	19	25
11	Toshkent viloyati				4	3	5	4	16	2	8	79	89
12	Fargʻona viloyati			2	1	2	3	1	9	3	23	168	194
13	Xorazm viloyati				2		1		3	5	2	49	56
14	Toshkent shahri	1										1	1
Respublika boʻyicha jami		1	2	6	12	22	48	29	120	36	123	899	1058

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarning urbanizatsiya darajasi va hududiy urbanistik salohiyati. (Jadval: Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tayyorlangan).

T/r	Hududlar	Urbanizatsiya darajasi		Hududiy urbanistik salohiyati	
		%	O'rni	Ball	O'rni
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,8	6	2.5	1
2	Andijon viloyati	52,2	3	2.0	2
3	Buxoro viloyati	36,9	10	1.5	9
4	Jizzax viloyati	46,9	7	1.9	3
5	Qashqadaryo viloyati	42,8	9	1.5	8
6	Navoiy viloyati	49,1	5	1.6	7
7	Namangan viloyati	64,9	1	1.5	10
8	Samarqand viloyati	36,7	11	1.7	6
9	Surxondaryo viloyati	36,2	12	1.3	13
10	Sirdaryo viloyati	43,1	8	1.9	4
11	Toshkent viloyati	50,1	4	1.8	5
12	Farg'ona viloyati	56,9	2	1.4	12
13	Xorazm viloyati	33,1	13	1.5	11

1. Hududiy urbanistik salohiyati 1 balldan past bo'lsa - juda past;
2. Hududiy urbanistik salohiyati 1 balldan 2 ballgacha bo'lsa - past;
3. Hududiy urbanistik salohiyati 2 balldan 3 ballgacha bo'lsa - o'rtacha;
4. Hududiy urbanistik salohiyati 3 balldan 4 ballgacha bo'lsa - yuqori;

5. Hududiy urbanistik salohiyati 4 ballardan 5 ballgacha bo'lsa - juda yuqori.

Tahlillardan kelib chiqilsa, mamlakatimizda juda yuqori va yuqori urbanistik salohiyatda ega hududlar mavjud emas. O'rtacha urbanistik salohiyatda ega hududlar Qoraqolpog'iston Respublikasi va Andijon viloyati hisoblansa, qolgan barcha hududlar past urbanistik salohiyatli hududlar hisoblanadi. Toshkent shahri to'liq shahar hududi bo'lganligi uchun ushbu baholashga kiritilmaydi.

Qoraqolpog'iston Respublikasi shaharlar sonini ko'pligi va shaharchalarni kamligi hamda shaharlar tarkibida o'rta va yarimo'rta shaharlarning ulishi yuqoriligi uchun uning hududiy urbanistik salohiyati respublikamiz bo'yicha eng yuqori hisoblanadi. Andijon viloyatida ham o'rta va yarim o'rta shaharlar ulishini balandligi, shuningdek, katta hamda o'rta shaharchalar miqdori yuqoriligi tufayli uning hududiy urbanistik salohiyati o'rtacha bo'lishini ta'minlaydi.

Urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan Namangan va Farg'ona viloyatlarining hududiy urbanistik salohiyati pastligining asosiy sababi shaharlar tarkibida shaharlar sonini kamligi, aksincha shaharchalar sonining ko'pligi, shaharchalar tarkibida ayniqsa kichik shaharchalarni ulishi yuqoriligidadir. Shaharlar soni ko'p bo'lgan Toshkent viloyatining hududiy urbanistik salohiyatini ham shunday shaharchalar pasaytirganligini ko'rishimiz mumkin. Shaharlar kesimida hududiy urbanistik salohiyat aniqlansa ushbu viloyat Respublikamizda eng yuqori ko'rsatkichni qayd qilgan bo'lardi. Shunday holat Navoiy viloyatida ham kuzatilgan.

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Mazkur

tadqiqotdan ko'rish mumkinki Respublikamiz hududlarini urbanizatsiya darajasi ularning hududiy urbanistik salohiyatiga mutanosib emas. Buning asosiy sababi sifatida 2009-yildagi ma'muriy o'zgarishlar tufayli 966 ta qishloq hududlarida shaharcha ma'qomini berilishi natijasidir. Ushbu shaharchalarning aksariyati aholisining kamligi tufayli kichik shaharchalar hisoblanadi.

Kelgusida ma'muriy markaz sifatida va boshqabir qancha funksiyalarni amalga oshirayotgan respublikamizdagi 76 ta shaharchalarning 37 tasiga aholi soniga va ularning ahamiyatidan kelib chiqib shahar ma'qomini berishni lozim deb hisoblaymiz. Ayrim aholi soni ko'p bo'lgan va ma'lum bir hudud uchun o'ziga xos markaz bo'lgan qishloqlarga shaharcha ma'qomini berish, shaharcha maqomida turgan aholisi kam bo'lgan, ahamiyati yuqori bo'lmagan kichik shaharchalarni shaharchalar tarkibidan chiqarish tufayli hududning urbanistik salohiyatini oshirish mumkin.

Shahar va hududiy rivojlanish milliy strategiyasini qabul qilish. Unda mamlakat shaharlari qanday bo'lishi kerakligi hamda ularni rivojlantirishning tegishli maqsadlariga erishish bo'yicha davlat siyosatiga oid chora-tadbirlar aniq ifodalanishi, shuningdek, strategiyani amalga oshirishga mas'ul davlat organlari belgilab olinishi lozim [2].

Shaharlar rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish. Shaharlarni yoniga emas bo'yiga rivojlantirishga erishish maqsadida shaharlarni aniq chegaralarini belgilash va mavjud chegaralar doirasida rivojlantirish yuzasidan iqtisodiy va ijtimoiy islohatlarni amalga oshirish kabi ishlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF 158-sonli Farmoni.
3. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijlimoiy – iqtisodiy rivojlanishi. -T.: "Mumtoz so'z", 2010.
4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T., "Vneshinvestprom", 2019.
5. Qosimov X.S. Farg'ona mintaqasi shaharlari funksiyalarini takomillashtirish masalalari // "Kompleks geografik tadqiqotlar: innovatsiya va amaliyot" Respublika ilmiy-amaliy konserinseyasi materiallari.- Andijon, 2022.- 82-87 bet.
6. Qosimov X.S. Shaharlar taraqqiyotida turistik koridorlarning ahamiyati // "Geografik tadqiqotlar: innovatsiyon g'oyalar va rivojlanish istiqbollari". Xalqaro ilmiy amaiy konfrensia materiallari.- Toshkent, 2022. -392-396 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining 2023-yil yakunlari bo'yicha Axborotnomasi.-T., 2024.